

PAPER

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA ADABIY SULOLA VA SULOLA TUSHUNCHASI

Normanova Iroda Salohiddin qizi ^{1,*}

¹Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili ova adabiyoti uuniversiteti Masofaviy ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

*irodanormanova02gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti va jahon adabiyotida samarali ijod qilgan sulolaviy ijodkorlarning hayoti va ijodi haqida so‘z boradi. Har bir sulola vakillarining qanday muhitda yashab ijod qilganligi, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidga qay yo‘sinda hissa qo‘shganligi, ilmiy faoliyati tahlil qilinadi. Sulolaviy ijodkorlarning bir –biridan farqlari va o‘xshash tomonlari o‘rganiladi. Bir sulola ijodkorlarining boshqa sulola vakillari bilan bog‘liqlik tomonlari tahlilga tortiladi. Ular yozib qoldirgan ilmiy-ijodiy manbalar bugungi kunda qay darajada o‘rganilayotgani va ularning ilmiy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Key words: Adabiy sulola, sulola, adabiyotshunos, adaboyot nazariyasi, adabiyotshunoslik tarixi, adabiy tanqid, folklor, baxshichilik, tarixiy-qiyosiy metod.

Kirish

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida sulola tushunchasi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida sulolalar mavzusi ikki asosiy yo‘nalishda ko‘rinadi: biri – yozuvchilar sulolalarining ijodiy merosi va ularning adabiyotga ta‘siri bo‘lsa, ikkinchisi – adabiy asarlarda sulolalarning tasviri va ularning jamiyatdagi o‘rnidir. Ushbu maqola orqali biz zamonaviy o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan

sulola vakillarining adabiy-ilmiy merosi bilan qisqaroq tanishib chiqamiz. Kirish qisim o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, sulolaviy ijodkorlar faqatgina zamonaviy o‘zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham vaholanki, o‘zbek adabiyoti tarixida ham bir qancha ijodkor sulola vakillari yashab o‘tgan.

Jahon adabiyotidagi ijodkor sulolalar.

Jahon adabiyoti adiblari orasida o‘zlarining o‘tkir saviyali asarlari bilan o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkor aka-uka Grimmilar ham ayni Grimmilar

Compiled on: January 17, 2026.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

sulolasi vakillaridir. Ular XVIII asrning oxiri XX asrning boshlarida yashab ijod qilgan. Nemis folklorshunosligida mifologik maktabga asos solgan. Nemis xalq ertaklari va rivoyatlarini jamlagan. Ertakchi aka-uka Grimmlar noyob, durdona asarlari bilan jahon bolalari qalbidan chuqur joy olgan. Ertaklari asosida suratga olingan “Oppog‘oy”, “Zolushka”, “Qizil shapkacha”, “Rapunzel” kabi multfilimlar hali hanuz o‘z muxlislari tomonidan sevib tomosha qilinadi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Dog‘istonda yashab qalam tebratgan ota-o‘g‘il ijodkor shoirlar, avar xalqining fidoyi farzandlari, Dog‘iston xalq shoiri Hamzat Sadasa va uning o‘g‘li Rasul Hamzatovlar ham jahon adabiyoti ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan ijodkorlar hisoblanadi. Rasul Hamzatov ijodi Sharq va G‘arb she‘riyati tutashgan nuqtada paydo bo‘lganligi, tog‘li o‘lka kishilarining o‘ziga xos ruhiy olamini aks ettirganligi, o‘ta samimiyligi va miliyligi bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi.

O‘zbek adabiyotidagi sulolaviy ijodkorlar

Endi o‘zbek adabiyotining tarixiga bir nazar tashlaydigan bo‘lsak, oilaviy ijodkorlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Bizda xalq og‘zaki ijodi baxshichiligidan boshlangan ekan sulolaviy ijodkorlik aslida. XVIII asrning oxiri XX asrning boshlarida Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani Qo‘rg‘on qishlog‘ida yashab xalq dostonlarini ohanrabo tarzda kuylagan shoirimiz, Ergash shoirning otasi Jumanbulbulning momosi Tilla Kampir va uning o‘g‘li Jassoq baxshilar ham oilaviy she‘r ixlosmandlari edi.

Bular bilan bir davrda yashab ijod qilgan shoirlarimiz Jumanbulbul va uning o‘g‘li Ergash Jumanbulbul ham xalq dostonlarini mahorat bilan ijro etuvchi ijodkor xalq baxshilari edi. Ularning yetti ajdodi ham baxshichilikda mashhurlikka erishgani barchamizga ma’lum.

Yana bir baxshi-shoirimiz, Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi vakili Po‘lkan Muhammad Jomurod o‘g‘li ham 1874-1941 yillarda bugungi Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on tumani, Qatag‘on qishlog‘ida yashab baxshichilik qilgan. Shuni faxr bilan aytib o‘tishim kerakki, buyuk bobokalonimiz tug‘ilib o‘sgan bu zamin mening ham ona qishlog‘imdir. Po‘lkaning o‘g‘li Umarqul Po‘lkan, uning o‘g‘li Amirqul Po‘lkan va Amirqul

Po‘lkaning qizi, shoirimiz Saodat Po‘lkanovalar ham ushbu adabiy sulolaning davomchilaridir. XX asr yangi o‘zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi, 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarining faol ishtirokchisi Abdulla Qodiriyning avlodlari ham adabiyot ixlosmandlaridir. Qodiriylar sulolasini adibning farzandlar—Habibullo Qodiriy “Otam haqida”, Mas’ud Abdullayev esa “O‘tganlar yodi” kabi xotira yo‘sinidagi asarlar yozish bilan davom ettirgan bo‘lsa, adibning nabirasi Sherkan Qodiriy esa “37- xonandon”, “Do‘lvar yigit” nomli kitoblari orqali ushbu sulolaning adabiy merosini yanada boyitdi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli shoiri Po‘lat Mo‘min va uning o‘g‘li Ozod Mo‘min xo‘ja ham hajviy, fantastik hikoyalari va “Buyuk Amir Temurning yoquti” kabi tarixiy mavzudagi asarlari bilan Mo‘minovlar adabiy sulolasini davom ettirgan holda o‘z o‘qirmanlari qalbidan joy olgan.

Qo‘qon adabiy muhiti azaldan o‘z betakror ijodkorlari bilan ajralib turadi. Shular qatorida Po‘latjon Qayumovni ham eslab o‘tish maqsadga muvofiqdir. O‘rtancha farzandi akademik Azizxon Qayumovning (1926-2018) adabiyotshunos sifatida olib borgan faoliyati tahsinga loyiq albatta. Qo‘qon adabiy muhiti mavzusida. „Maxmur“ (1956), „Hoziq“ (1957), „Go‘ziy“ (1959), „Saddi Iskandariy“ (1975), „Alisher Navoiy“ (1976, 1991), „Hayrat ul-abror“ (1977), „Farhod va Shirin“ sirlari” (1979), „Nodir sahifalar“ (1991), „Bu ohang ila bo‘lg‘aysen Naqshband“ (1993) kabi asarlari Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosini o‘rganishga muhim hissa qo‘shga. Adabiyotshunos mastnshunoslik sohasida ham samarali ish olib borib, bir qancha o‘zbek mumtoz shoirlarining asarlarini nashrga tayyorlagan. Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati bo‘lgan. Po‘latjon Qayyumovning to‘rtinchi farzandi Laziz Qayumov (1930-2004), asosan Hamza ijodi bilan shug‘ullangan. Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureatiga loyiq deb topilgan (1973). Beshinchi farzandi Nasimxon Qayumov filologiya fanlari nomzodi bo‘lib, 49 ta qo‘qonlik shoirlar hayoti va ijodini o‘z ichiga olgan „Qo‘qon shoirlari“ kitobi yozib tugatgan.

Natija

Buxoro zaminda ko'plab olim-u fuzalolar, akademik, professorlar, fan doktorlar, shoir-u yozuvchilar yetishib chiqqan. Akademik Ibrohim Mo'minov, shoirimiz Sulton Jo'ra, folklorshunos olim, akademik To'ra Mirzayev, sevimli shoirimiz Jamol Kamol, Buxoro bolalar folklorshunosligining asoschisi Oxunjon Safarov, filologiya fanlari doktori, navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul , adabiyotshunos olim Ergash Ochilov va bolalar shoiri Dilshod Rajabovlar ham aynan mana shu yerda o'sib ulag'ayib, qalam tebratgan fidoyi farzandlardir. Nafaqat Buxoroda yurtimizning barcha joyi ilmiy ziyoli insonlarga boydir. Ularning har birini o'rganish va tadbqiq qilish zarur va shartdir.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, mazkur maqola zamonaviy o'zbek adabiyotida sulolalar mavzusining ahamiyatini yoritish, uning adabiy jarayonga qo'shgan hissasini tahlil qilish va kelajak avlodlar uchun qoldirgan adabiy-ilmiy merosini ham nazariy ham amaliy jihatdan o'rganib, muhim xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

References

Ilmiy – nazariy adabiyotlar

1. Sarimsoqov B. Badiylik asoslari va mezonlari, T: "BOOKMANY PRINT", 2022-yil.218 bet
2. Hasanov I. Asqad Muxtor romanlari,- Samarqand:SamDU nashriyoti,1990-yil.39 bet.
3. "Mangu yongan chiroqlar", - T: "Navro'z" nashriyoti,2019-yil.149 bet.
4. Ofoqova N. " Jadid lirikasida musammat",- T:2005-yil. 24 bet.
5. Safarov O. "Adabiy sulola sardeori",- Samarqand:SamDU nashriyoti,2013-yil.82 bet
6. Hasanov Sh. "Hozirgi o'zbek dostoni poetikasi",-Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti,2024-yil.202 bet.

Badiiy adabiyotlar

7. Hasanov A. "Ajdodlar nidosi",-Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 1998-yil. 39 bet.
8. Hasanov A. "Buxoroyi sharif derlar",-T: "Yozuvchi" nashriyoti,1998-yil.